

LOYIHA ISHLARI PUDRATI SHARTNOMASI
№13-BK/2022

Urganch shahri

2022 yil «21» Aprel

Kelgusida «Buyurtmachi» deb nomlanuvchi Xorazm viloyat hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor SH.A.Otayev bir tomondan, kelgusida «Loyihachi» «O'ZBEKKOMMUNALLOYIHAQURILISH» DUK nomidan ish yurituvchi bosh direktor E.A.Muxamedaliyev ikkinchi tomondan Xorazm viloyati Urganch tuman «Anjirchilar» MFY da 28 km ISTni yangidan qurish ob'ektini Loyiha-qidiruv ishlarini ishlab chiqarish yuritishga doir ushbu shartnomani tuzdilar.

1. Shartnomaning mazmuni

1.1. Loyihachi Buyurtmachining Loyihalash topshirig'i bo'yicha ishchi Loyiha-qidiruv ishlarini (LQI)ni ishlab chiqish majburiyatini oladi.

1.2. Buyurtmachi Loyiha-qidiruv ishlarini bajarish uchun topshiriq berish, zarur bo'ladigan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish, belgilangan tartibda va miqdorda xaqini to'lash majburiyatini oladi.

1.3. Loyihachi ko'rsatib o'tilgan ishlarni «Korxonada, bino va inshootlari Loyiha-qidiruv ishlarini tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash» xaqidagi SHNQ 1.03.01-16 qoida va qo'llanmalari va mazkur Shartnomaning xujjatlariga asoslanib bajaradi va tugallaydi.

1.4. Loyihachi ushbu LQI bo'yicha barpo etilayotgan ob'ekt to'liq qurilib, foydalanishga topshirilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydagi «Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 321-son qarori talablari asosida mualliflik nazoratini olib borish majburiyatini oladi.

1.5. «Loyihachi» mazkur ishlarni bajarishga Shartnoma imzolangan kundan boshlab kirishadi.

2. Ishlarni bajarish muddati

2.1 Mazkur Shartnomada LQIni tayyorlash muddati, 2022 yil 19 Apreldagi №67617-sonli bayonnomasiga asosan, ishlar boshlangan kundan boshlab 7 kal.kun etib belgilanadi.

2.2 Buyurtmachi tomonidan topshiriq, birlamchi ma'lumotlarni berish va Loyihachi tomonidan Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha ishchi LQI ishlab chiqish, amaldagi tartib qoidalar bo'yicha topshirish muddatlarini tomonlar kalendar jadvalda belgilaydilar va u Shartnomaning ajralmas qismi xisoblanadi.

2.3 Loyihachi Shartnomani 2.1 bandida kursatilgan muddatida Loyiha-qidiruv (LQI) ishlarini to'liq yakunlab buyurtmachiga taqdim qilmasa Shartnomani bekor qilish uchun asos bo'ladi.

3. Shartnoma baxosi.

3.1 Mazkur Shartnoma bo'yicha Loyihachi tomonidan bajarilgan tanlov natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori 2022 yil 19 Apreldagi №67617-sonli bayonnomasiga asosan bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarini o'z ichiga olgan holda QQS bilan joriy narxlarda 160 000 000 so'mni tashkil qiladi.

4. To'lov shartlari.

4.1 Shartnomada milliy valyuta «so'mda» o'zaro xisob-kitob qilinishi belgilanadi, to'lovlar to'g'ridan-to'g'ri Loyihachi xisob raqamiga pul o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

4.2. Mazkur Shartnoma bo'yicha maqsadli avans, ishlar umumiy qiymatining 30 foizini tashkil qiladi.

4.3. Buyurtmachi mazkur Shartnomada belgilangan ishlar to'lagigicha bajarilib, xajmi, sifati va Loyihachining xisoboti tekshirilib, Davlat ekspertizalaridan o'tkazilib, aniqlangan kamchilik va xatolar, bildirilgan e'tirozlar bartaraf qilinib ijobiy xulosalar olingandan keyin Shartnoma qiymati doirasida ilgari berilgan avansni xisobga olgan holda yakuniy to'lovni ya'ni kolgan 70 foizini amalga oshiradi.

5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

Loyihachining majburiyatlari:

5.1. Loyihalash xaqidagi topshiriqqa va boshqa boshlang'ich ma'lumotlarga muvofiq ishlarni bajarish va natijasini Shartnomada belgilangan muddatda Buyurtmachiga topshirish majburiyatlarini oladi.

5.2 Tayyor bo'lgan LQI xujjatlarini Buyurtmachi bilan birgalikda foydalanish tashkilotlari (elektr tarmoqlari korxonasi, vodokanal, raygaz, yong'in xavfsizligi nazorati), tegishli davlat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan kelishib olish.

5.3 Buyurtmachining rozilgisiz LQI xujjatlarini uchinchi shaxslarga bermaslik.

5.4 Ishlab chiqilgan LQI xujjatlarini asosida quriladigan ob'ektning kurilishi boshlanishidan kurilishi tugallanib foydalanishga topshirilgandan keyin kafolat muddati tugagunga qadar to'lagigicha, mualliflik nazoratini olib borish majburiyatini oladi. Ushbu grafik Buyurtmachiga Loyihachi tomonidan ishlar boshlangan kuni taqdim qilinadi. Loyihachi qurilish maydonida ko'rinmas ishlar (скрытые работы) bajarilayotgan paytda qatnashishni kafolatlaydi.

Ushbu ko'rinmas ishlar ro'yxati amaldagi me'riy xujjatlarga asosan ishchi Loyihada ko'rsatilishi shart.

5.5 Buyurtmachi bilan birgalikda ishlab chiqilgan LQIni Davlat va ekologik ekspertizalardan o'tkazish, ularning qayd qilgan xato va kamchiliklarini, bildirgan e'tirozlarini beg'araz bartaraf qilish majburiyatini oladi.

5.6 Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan dastlabki va birlamchi ma'lumotlarni, muxandislik qidiruv xulosalarini, Buyurtmachining rozilgisiz uchinchi shaxslarga bermaslik va ulardagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, ulardan faqat ushbu Shartnomadagi predmetda foydalanish majburiyatini oladi.

5.7 Loyihachi atrof muxitga ta'siri tug'risidagi Loyihagini ishlashni (Zvos) majburiyatini oladi.

5.8 Loyihachi davlat ekologik ekspertiza xulosasini olib Buyurtmachiga taqdim qilish majburiyatini oladi.

5.9 Loyihachi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrda PQ-43-sonli va 2022 yil 22 yanvardagi PQ-98-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydagi 321-son qarorlarini so'zsiz bajarish majburiyatini oladi.

5.10 Loyihachi, Buyurtmachi tashkilotiga har bir obyekt bo'yicha Mualliflik nazoratini yuritishga mas'ul qilib belgilab hujjatlarini berish (Mas'ul shaxsning diplom, passport, buyruq, o'qiganligi to'g'risida sertifikatlarini nusxalarini topshirish) majburiyatini oladi.

Buyurtmachining majburiyati:

5.11. Loyihachidan olingan LQI xujjatlaridan faqat mazkur Shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanish, LQI xujjatlarini Loyihachining rozilgisiz uchinchi shaxslarga bermaslik va ulardagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik.

5.12. Shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda Shartnomani 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni qabul qilib olish va bajarilganlik uchun Loyihachiga xaq to'lash.

5.13. Loyihachiga Loyiha ishlarini bajarishda ushbu Shartnomada nazarda tutilgan xajmda va shartlarda xizmat ko'rsatish.

5.14. Tayyor bo'lgan LQI xujjatlarini tegishli davlat organlari va fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari bilan kelishib olishda Loyihachi bilan birga qatnashish.

5.15. Loyihachiga bog'liq bo'lmagan xolatlar sababli Loyiha ishlarini bajarish uchun boshlang'ich ma'lumotlar o'zgarishi bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni Loyihachiga to'lash.

5.16. Tayyorlangan LQI xujjatlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan Buyurtmachiga nisbatan qo'zg'atilgan da'vo yuzasidan ishga qatnashishga Loyihachini jalb qilish.

5.17. Loyihachining xuquqlari:

- LQI xujjatlarini ishlab chiqish jarayonida zarurat bo'lsa ayrim maxsus qismlarini bajarish uchun yordamchi (subpodryadchiklarni) jalb qilishga xaqlidir.

6. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

6.1. Bajarilgan ishlarni baxolash va qabul qilib olish texnik topshiriq talablari asosida kalendar jadval bo'yicha amalga oshiriladi.

6.2. Loyihachi tomonidan topshiriladigan va rasmiylashtiriladigan xujjatlar ruyxati texnik topshiriqda aniklanadi.

6.3. Loyihachi ishlarni bajarib bo'lgach, Buyurtmachiga texnik topshiriqda ko'rsatilganidek topshirish - qabul qilish dalolatnomasi bilan birgalikda ilova qilib bitta elektron variant va 3ta nusxada xujjatlar komplektini xisobot bilan taqdim etadi.

6.4. Buyurtmachi mazkur Shartnomada ko'rsatilganidek, topshirish - qabul qilish dalolatnomasini va xisobot xujjatlari bajarilgan ishlarni 5 kun mobaynida qabul qilish majburiyatini oladi va Loyihachiga imzolangan, yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini jo'natadi.

6.5. Bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish davomida buyurtmachining asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yxati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.6. Agar ishlarni bajarish jarayonida, keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi ma'lum bo'lib qolsa, tomonlar 5 kun mobaynida bir-birlarini ishlar to'xtatilganligi xaqida xabardor qilishlari shart va 10 kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan yo'nalishlarini oydinlashtiruvchi masalalarni ko'rib chiqishlari kerak. Ishlar to'xtatilgan xollarda tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan majburiyatlar yuklanadi.

6.7. O'zaro xisob-kitoblarni qilishning muddati kelganligi, tomonlarning biri mazkur Shartnomadagi ishlarni to'xtatish xaqidagi yozma xabarnoma bergan sanadan xisoblanadi.

6.8. Bajarilgan ishlar (bosqichlar)da kamchilik va nuqsonlar aniqlanganda Loyihachi ularni beg'araz bartaraf etadi.

6.9. Agar Loyihachi o'tgan bosqich uchun xisobot bermasa, keyingi bosqich uchun moliyalashtirish ishlari bajarilmaydi.

7. Taraflarning javobgarligi.

7.1. Loyihachi LQI xujjatlaridagi kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan LQI xujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun qilingan xarajatlarni qoplaydi.

7.2. LQI xujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda Loyihachi Buyurtmachining talabi bilan LQI xujjatlarni bepul qayta ishlab chiqishi va buning oqibatida keltirilgan zararni to'lashi shart.

7.3. Penyaning to'langanligi va zararning qoplanganligi taraflarni o'z majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

7.4. Mazkur Shartnomada ishlarni bajarish grafigidagi majburiyatlarini buzganligi uchun ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi va Shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarini buzganligi uchun «Loyihachi» «Buyurtmachi»ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

7.5. Mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi.

8. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holati (fors - major).

8.1. Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy xodisalar, xarbiy xarakatlar va boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, xamda bu xolat mazkur Shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolgan uchun javobgarlikdan ozod bo'ladi.

Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarining ijro muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat, shuningdek shu vaziyat keltirib chiqargan oqibat xukm surgan vaqtga mos ravishda orqaga suriladi.

8.2. Agar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortiq vaqtga cho'ziladigan bo'lsa, Loyihachi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to'xtatish uchun chora-tadbirlar ko'rishni muxokama qiladilar. Agar tomonlar ikki oy mobaynida bir to'xtatimga kela olmasalar, tomonlarning xar qaysisi Shartnomani bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

9. Qo'shimcha shartlar

9.1. Buyurtmachi 1.1 - bandda ko'rsatilgan ob'ektdan tashqari, Loyihachi tomonidan taqdim etilgan bajarilgan ish natijalaridan foydalanishga xaqli emas, Loyihachidan olingan birlamchi ma'lumotlardan boshqa maqsadlar uchun foydalanish xuquqiga ega emas.

10. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari

10.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va uning shartlari to'liq bajarilguncha o'z kuchida qoladi.

10.2. Shartnomaning muddati tugashiga qaramay, tomonlar javobgarlikdan ozod etilmaydi.

10.3. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabr.

11. Baxslarni hal etish tartibi

11.1. Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida vujudga keladigan baxslar o'zora muxokama qilinib kelishuvga erishish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, qonunchilikda belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

12. Shartnomani o'zgartirish va unga qo'shimchalar kiritish tartibi va bekor qilish tartibi.

12.1. Ushbu Shartnomaga xar kanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda xaqiqiy xisoblanadi.

12.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga ko'ra, etkazilgan zararni qoplash sharti bilan yo'l qo'yiladi.

12.3. Loyihachining aybi bilan ishlarning borishi to'xtab qolsa va ishlarning tugatilishi Shartnomada belgilangan muddatdan bir oydan oshiq muddatga kechiktirilsa, berilgan topshiriqda nazarda tutilgan ishlar sifati mavjud talablarga javob bermasa, Buyurtmachi Shartnomani bekor qilishga xaqli.

12.4. Loyihachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Loyiha ishlari Buyurtmachi tomonidan bir oydan oshiq muddatga to'xtatilsa, Buyurtmachi Loyihalash ishlari xaqini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmasa, Loyihachi Shartnomani bekor qilishga xaqli.

12.5. Shartnomani bekor qilish xaqida qarorga kelgan uchun ikkinchi tomonga 10 kun oldin yozma bildirishnoma yuboradi, ikkinchi tomon 10 kungacha e'tiroz bildirmasa Shartnoma bekor qilingan xisoblanadi.

12.6. Mazkur Shartnoma bil xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuziladi.

13. Tomonlarning rekvizitlari:

Buyurtmachi:

Loyihachi:

Xorazm viloyat hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi

«O'ZBEKKOMMUNALLOYIHAQURILISH» DUK

Urganch sh. Al-Xorazmiy k.23-a
Telefon 223-09-29, 223-09-38
sh/hr 301821860534017063201018011
STIR 204821497, OKONX 69000
Moliya vazirligi g'aznachiligi
G'azna x/v: 23402000300100001010
Markaziy bank Toshkent shaxar XKKM
MFO 00014 STIR 201 122 919

Toshkent sh. Niyozbek yo'li kochasi 1.
Telefon: 71-234-16-07
x/r: 20 210 000 800 101 500 001
STIR: 201 059 118
OKONX: 66000
AKIB "IPOTEKA BANK" Mehnat filiali
MFO 00423

Direktor: SH.A.Otayev


Bosh direktor: E.A.Muxamedaliyev

Bosh yuriskonsult: SH.Djumaniyazov

Xorazm viloyati Urganch tuman "Anjirchilar" MFY da 28 km ISTni yangidan qurish
ob'ekti bo'yicha Loyiha-qidiruv ishlarini bajarish

GRAFIGI

№	Ob'ekt nomi va manzili	Ishlar turi	Ishlar qiymati jami, ming so'm	shu jumladan 2022-yil	
				Aprel	-
1	2	3	4	5	-
1	Xorazm viloyati Urganch tuman "Anjirchilar" MFY da 28 km ISTni yangidan qurish	Loyiha-qidiruv ishlari QQS bilan	160000,0	160000,0	-
JAMI			160000,0	160000,0	-



Buyurtmachi



Loyihachi

BUYURTMACHI - Xorazm viloyat hokimligining «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi bilan Loyihachi - «O'ZBEKKOMMUNALLOYIHAQURILISH» DUK o'rtasida Xorazm viloyati Urganch tuman "Anjirchilar" MFY da 28 km ISTni yangidan qurish ob'ektiga Loyiha-qidiruv ishlari ishlab chiqish yuritishga doir Shartnoma loyihasi yuzasidan kompaniya Bosh yuriskonsulti SH.Djumaniyazov tomonidan O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining Shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunining 21-moddasi talablaridan kelib chiqib

XULOSA

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining Shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni, va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tayyorlangan. Shartnoma Loyihasining shartlari, xususan Shartnoma mavzusi, taraflarning xuquqlari va majburiyatlari, hisob-kitoblar tartibi, taraflarning javobgarligi, nizolarni xal etish tartibi, fors-major xolatlari va javobgarlikdan ozod etish masalalari qonun hujjatlari talablariga mos keladi.

Bosh yuriskonsult SH.Djumaniyazov
2022 yil

T/P	Объектлар номи ва манзили	Қурилиш бошланиш ва фойдаланишга топшириш йили	Лойиҳа қуввати (км)	Объектнинг умумий қиймати (шартнома асосида) жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	01.01.22 й. ҳолатига объект қолдиқ қиймати жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	01.01.22 й., ҳолатига йилдан йилга ўтувчи объектнинг (кайта ҳисоблаш билан) қолдиқ қиймати жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	01.01.22 й., ҳолатига объектнинг молиялаштириш қолдиғи жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	2022 йил учун капитал қўйилмалар лимити				2022 йилда фойдаланишга топширилмаган		01.01.23 й., ҳолатига йилдан йилга ўтувчи объектнинг (кайта ҳисоблаш билан) қолдиқ қиймати жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	01.01.23 й., ҳолатига йилдан йилга ўтувчи объектнинг молиялаштириш қолдиғи жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	Экспертиза қулосаси рақами ва санаси	Тендер (тақлов)лар натижасига бўйича баённома рақами ва санаси	Қурилиш пудрат ташкилот номи	
								Жами капитал қўйилмалар	Қурилиш - монтаж ишлари	Жилоз	Буёртмачи бошқа харажатлари		Муддат/ қувват						Асосий фонд суммаси
											Жами	жумладан, савпаш харажатлари							
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
19	Шовот туман "Дўстлик" МФЙ да ичимлик сув тармоқларини қуриш ва таъмирлаш <i>шу жумладан ЛҚИ учун</i>	2022 й.	3 км					520,00	493,42		26,58								Тендер
20	Янгиарик туман "Янгиер" МФЙ да ичимлик сув тармоғини таъмирлаш <i>шу жумладан ЛҚИ учун</i>	2022 й.	14,5 км					3 040,00	2 906,16		133,84								Тендер
21	Янгибозор туман "Ҳақобод" МФЙ да ичимлик сув тармоқларини қуриш ва таъмирлаш <i>шу жумладан ЛҚИ учун</i>	2022 й.	10,2 км					1 450,00	1 380,99		69,01								Тендер
22	Янгибозор туман "Қиёт" МФЙ да ичимлик сув тармоқларини қуриш ва таъмирлаш <i>шу жумладан ЛҚИ учун</i>	2022 й.	14 км					2 870,00	2 755,07		114,93								Тендер
											79,81								

"КИРИТИЛДИ"
Хоразм вилоят ҳокимлиги
"Ягона буюртмачи хизмати" ИК
директори
Ш. Отаев
" " " 2022 й.

"КЕЛИШИЛДИ"
Ўзбекистон Республикаси
Молия вазири ўринбосари
" " " 2022 йил.

"КЕЛИШИЛДИ"
Ўзбекистон Республикаси
Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни
кискартириш вазирлиги
" " " 2022 й.